



ISLOM BIOETIKASIDA BIOTIBBIY AXLOQNING ASOSIY MASALA VA YONDASHUVLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19103359>

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti(PhD)

Isaxova Shaxlo Muxtarovna

Anotatsiya: *Ushbu maqola islom bioetikasida islom axloqi, me'yorlarini o'zida ifodalagan biotibbiy axloqning asosiy masala va yondashuvlari haqida. Islom bioetikasining ahamiyati bo'yicha ilmiy qarashlarning muhimligi ta'kidlanadi. Islomda musulmonlar hayotni har bir jabhasida, shu jumladan sog'liq va davolanishda diniy qadriyatlarga yondashgan holda tibbiy vazifalarni bajarilishini shart hisoblaydi. Buni muhimligini islomga asoslangan biotibbiy ahloq ma'lum etadi.*

Kalit so'zlar: *bioetika, inson huquqlari, islom bioetikasi, biotibbiy ahloq, bemorlarning huquqlari, inson hayoti, sog'lig'i.*

Annotatsiya: *Данная статья посвящена основным вопросам и подходам биомедицинской этики, отражающей исламскую мораль и нормы в исламской биоэтике. Подчеркивается важность научных взглядов на значение исламской биоэтики. В исламе считается обязательным, чтобы мусульмане во всех сферах жизни, включая здоровье и лечение, выполняли медицинские обязанности с учётом религиозных ценностей. Важность этого раскрывается в биомедицинской этике, основанной на исламских принципах.*

Ключевые слова: *биоэтика, права человека, исламская биоэтика, биомедицинская этика, права пациентов, жизнь человека, здоровье.*

Annotation: *This article is devoted to the main issues and approaches of biomedical ethics that reflect Islamic morality and norms within Islamic bioethics. The importance of scientific views on the significance of Islamic bioethics is emphasized. In Islam, it is considered obligatory for Muslims to perform medical duties in all aspects of life, including health and treatment, while adhering to religious values. The importance of this is revealed through biomedical ethics based on Islamic principles.*

Keywords: *bioethics, human rights, Islamic bioethics, biomedical ethics, patients' rights, human life, health.*

KIRISH



Inson huquqlari tamoyillarining asoslari Islom diniy ta'motlari uchun muhimdir. Ko'plab musulmon olimlari va davlatlari inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillarni baynalmilallashtirishni rad etadi. G'arb qadriyatlari yahudo-nasroniy diniy va madaniy meroslari bu halqlarni aslini aks ettiradi. Yuneskonging bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasining moddalari munozarali hisoblanadi. Inson huquqlari bilan Yuneskonging bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasi islom qonunlari bilan himoyalangan va an'anaviy islom ta'limotiga kiritilgan. Ushbu tamoyillarni Islomga tadbiq etish uchun turli hil uslublarga murojaat qilinadi va bioetika tamoyillari asosida yondashiladi. Islom amaliyotida musulmonlar hayot va umr davomiyligini ta'minlashda shariat qonunlariga va bioetika me'yorlariga rioya qilishadi. Musulmonlarni shariat qonunlariga rioya qilishlari Islom uchun asos bo'lib, har qanday holatda bekor qilinishi, e'tiborsiz qoldirilishi mumkin emas. Shuning uchun Qur'onda ko'rsatilganidek, ushbu oyat quydagicha fikrni anglatadi. "Ey mo'minlar, Ollohga itoat qilingiz va payg'ambarga itoat qilingiz hamda o'z'laringizdan bo'lgan (musulmon) hokimlarga (bo'ysuningiz)! Bas, agar biron narsa haqida talashib qolsangizlar, - agar haqiqatdan, Ollohga va Ohirat kuniga iymon keltirgan bo'lsangizlar – u narsa Ollohga va Payg'ambariga qaytaringiz! Mana shu eng yaxshi va eng chiroyli yechimdir".[1](4:59) Islom

manbalarida an'anaviy Islom axloqi, me'yorlari ishlab chiqilgan va o'rnatilgan. Islomiy bioetikaning ahamiyati bo'yicha ilmiy qarashlarning muhimligi ta'kidlanadi. Daar va Alhitamiy ta'kidlashicha, Islomda musulmonlar hayotni har bir jabhasida, shu jumladan sog'liq va davolanishda diniy vazifalarni bajarishlari shart. Buni muhimligini Islomga asoslangan biotibbiy ahloq ma'lum etadi. Qur'on oyatlari va Muhammad payg'ambarning ta'limotlarini biotibbiyotda ta'kidlash Islom uchun tabiiydir. Bunday amallar faqatgina Islom diniga xos emas balki, katolik va yahudiylik dinlari ham o'z izdoshlaridan davolash vositalari, choralari izlash paytida ta'limot va qonun asosida yashashlarni kutishadi. Musulmonlarda Islom ta'limoti markazlashgani sababli, sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarga javob beradigan standartlar va qoidalarga, islomga asoslangan biotibbiyot ahloqini mos keltirishga asoslanadi. Abdurahmon, S.Amine va Elkadi ta'kidlashicha, Islom bioetikasi zamonaviy davrda ahloqiy muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan mukammal ahloqiy tamoyillar to'plamidir.

Biotibbiy ahloqqa nisbatan diniy ta'limotlarda o'ziga hos islomiy yondashuv mavjud. Islom mamlakatlari biotibbiyot va uning ahloqiy mavzularida shariat aks etishi uchun ma'lumotlar to'plashadi. Buni uchun tibbiyot fanlari Islom tashkiloti IOMS[2], Islom konferensiyasi tashkiloti, Islom Fiqh akademiyasi, Islom yuridik kengashi va



qo‘shimcha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar yig‘ilishib, vaqti-vaqti bilan biotibbiyot ahloqining dolzarb mavzularini muhokama qilishadi va shariat bo‘yicha tushunchalar berishadi. Islom tibbiy ahloq qoidalariga bag‘ishlangan yangi tartibi va keyingi ishlarni muhokama qilishni boshladi. Samar Farage fikriga ko‘ra Islom tibbiy ahloqi Galeo-Islom bilan o‘zaro bog‘liq holda 1400 yil oldin paydo bo‘lgan. Tibbiyot fanining Yunon tilidan tarjimasini bilan mahalliy tibbiy bilimlar an‘anasi, Arab va Islom dinining mahalliy tillari bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Islom tibbiy axloqining tabiiy kengayishi ilm manbai sifatida Yunoniston tibbiy ahloqi shaxsiy xususiyatlari va shifokor hulk-atvori, g‘amho‘rligi bilan bog‘liq. “Adab al-Tabib” asari Islom odob-axloq qoidalarini targ‘ib qilish bo‘yicha batafsil ma‘lumot beradi. O‘nlab yillar davomida tibbiy axloq qoidalarini to‘plashda, ko‘plab musulmon tabiblar bu ishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Biotibbiyot sohasidagi zamonaviy yutuqlar va unga bo‘lgan axloqiy munosabatlar tufayli dillemlar, hamda islomiy nuqtai nazarni biotibbiyotga qo‘shish juda muhimdir.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

XXI asrda islomiy bioetika tibbiy-axloqiy adabiyotlarni ommaviy ishlab chiqarish bilan katta yutuqlarga erishdi. Islom bioetikasi sohasini rivojlantirish barcha fan olimlarini bioetika masalalarining islomiy nuqtai nazariga o‘z hissasini qo‘shishga undaydi. Huquqshunos, ijtimoiy fanlar bo‘yicha

olimlardan tashqari turli unvon va tavsiflarga ega diniy ulamolar, imomlar, muftilar shular qatoridan o‘rin olish kerakligi ta‘kidlanadi. Islomning yangiligini hisobga olgan holda biotibbiyot masalalariga biotibbiy ahloqiy ta‘sir, dolzarb biotibbiy mavzular bilan bog‘liq adabiyotlar miqdori cheklangan. Musulmon shariatida inson xudo bilan munosabatida haqni topishi va taqvodor hayot kechirishi demakdir. Islom muqaddas manbalari inson hayotining har bir sohasida, shu jumladan bioetikada tanqidiy fikrlashga yordam beradi. Islom shariati asosida bioetika bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda oqilona qaror qabul qilish amaliyotini shakllantiradi. Islom ta‘limoti, aqidalari haqlik va umuminsoniy ahloq me‘yorlariga rioya qiladi. Bioetikaga tegishli masalalarni muhokama qilishda, bioetika me‘yorlari uchun rasionallik va amaliylikni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun utilitarizm nazariyasi, prinsipalligi va boshqa tegishli qarashlar ma‘lum darajada Islom biotibbiy axloqiy me‘yorlar mohiyatiga o‘xshaydi. Masalan: Ko‘plab g‘arb mamlakatlari, rivojlangan davlatlar siyosiy va sog‘liqni saqlash sohaslarida utilitarizm sxemasini qo‘llaydilar. Sog‘liqni saqlash resurslarini ta‘minlash, oqilona taqsimlash kamchiliklarni to‘ldirish uchun ajratish muhimdir. Ushbu uslubiy yondashuvga o‘xshab, Islom jamiyatlarida adolatli taqsimotda oqilona hukmni qo‘llab quvvatlaydilar. Qur‘on Sunna va boshqa islomiy, huquqiy va axloqiy qonunchilikni asl manbaidir. Islom dinida



Qur'on eng muqaddas kitob sifatida qaraladigan qadimiy manbadir. Qur'onda ba'zi oyatlar ahloqiy masalalarni qamrab olsa, ba'zilari huquqiy hususiyatga ega bo'lgan savdo va jinoyatchilik kabi masalalarni tartibga soladi. Shuning uchun Islom qonunchilik tizimida Qur'on birinchi o'rinda turadi. Shuningdek Qur'on islomiy yuridik manbalarda ustun deb hisoblanadi. Sunna ahloqiy va huquqiy masalalarni hal qilishda ikkinchi muhim islomiy manbadir. Shariat hukmini belgilashda ilohiy manbalarning islomiy iyerarhiyasi quydagilardir: Qur'on matni, Payg'ambarimiz sunnati, salaflar fikri, ijmo, qiyosga tegishli tartib. Shuning uchun biotibbiyotga tegishli ahloqiy masalalarni hal etishda va islomiy hukmlar chiqarishda yuqoridagi manbalarga rioya etilishi shart hisoblanadi. Bu holatda musulmonlarning ma'naviy va amaliy harakatidagi huquqiy me'yorlar, shuningdek ahloqiylikni belgilashda ushbu manbalarning markaziylikni tushunish juda muhimdir. Shuning uchun Islom diniy ta'limotlari, Islom dinidagi bemorlarning huquqlarini himoyasida ko'pgina musulmon davlatlarida muhim ahamiyatga ega.

Islom dinining muqaddas manbasi hisoblangan Qur'on va hadisi shariflarda inson hayoti, sog'lig'i borasida qator oyat va hadislar kelgan. Qur'onning Baqara surasi 195 oyatida Alloh taolo insonlarni o'zlarini o'ldirishdan qaytaradi: "...o'z qo'llaringiz bilan o'zlarinigizni halokatga tashlamangiz!..."[3]. Bu oyatlarda inson joniga kelgan bemorlik, unga berilgan umr omonatligi, insonning joniga

daxldorlik Yaratganga tegishliliigi e'tirof etilgan. Bu oyatdagi so'zlar bioetikaning evtanaziya masalasiga tegishli bo'lib, evtanaziyani G'arb tibbiyoti bemorni kuchli og'riqlardan qutqarish maqsadida, insonning umri so'ngidagi istaklari va abadiy qadriyati, qonuniy huquqini ta'minlash deb yoqlasada, Sharq uni aksini ifodalaydi. Sharqda insonni umri va hayoti muqaddasligi, inson tanasi bilan umri unga Alloh tomonidan berilgan omonatligi ta'kidlanadi. Bir insonni boshqa bir inson hayoti, umriga daxl qilishi oyat va hadislarda qoralanadi. Imom Buxoriy hadislarida ham axloqning yaxshi bo'lishi, jismning pokizaligi masalalariga katta e'tibor qaratilganini kuzatish mumkin.[4]

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollalohu alayhi vasallam: "Musulmonga qay bir musibat – horg'inlikmi, bemorlikmi, ozormi, g'am-g'ussami, hattoki tikan kirishimi-yetadigan bo'lsa, albatta, Alloh ular ila uning xatolarini kafforot qilur"[5], deyiladi. Har qanday vaziyatda ham dardga chidamli, og'ir vaziyatga sabrli bo'lishlik, musulmon kishida bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar ichidagi eng a'losidir. Agar kishilar bemorligida sabrsizlik qilsalar, dardiga dard qo'shib, uning oqibati o'laroq shifo topishi kechikadi.

Islom bioetikasi biotibbiy axloq masalalarini hal etishda inson qadri, hayot muqaddasligi va adolat tamoyillarini asosiy mezon sifatida qabul qiladi. Islom ta'limotida tibbiy faoliyat inson hayotini asrash, uning sog'ligini saqlash va



jamiyat farovonligiga xizmat qilish bilan bog'liq muhim axloqiy mas'uliyat sifatida qaraladi. Shu bois, biotibbiy muammolarni hal etishda Qur'on, hadis va islom huquqi (fiqh) tamoyillari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Islom bioetikasida inson hayotining muqaddasligi, zarar yetkazmaslik, foyda keltirish, adolat va inson sha'nini himoya qilish kabi tamoyillar ustuvor ahamiyatga ega. Bu tamoyillar tibbiyotning zamonaviy sohalari — genetik tadqiqotlar, transplantologiya, reproduktiv texnologiyalar, evtanaziya va tibbiy tadqiqotlar kabi masalalarda axloqiy yo'nalishni belgilab beradi. Islom nuqtai nazaridan, har qanday tibbiy amaliyot inson hayotini asrash va zararni

kamaytirishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, islom bioetikasida ijtiho usuli orqali yangi tibbiy texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlarga nisbatan axloqiy-huquqiy baho beriladi. Bu esa zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti bilan diniy-axloqiy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, islom bioetikasi biotibbiy axloqning dolzarb muammolarini hal etishda inson hayotining muqaddasligi, adolat va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan kompleks axloqiy tizimni taklif etadi. U zamonaviy tibbiyot va ilmiy taraqqiyot sharoitida inson qadrini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy-axloqiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Alouddin Mansur, Qur'on azim muxtasar tavsiri –T: “Sharq” nashriyoti, 2020 yil, -B.208.
2. Tomas Eich., Zamonaviy Ulamolar o'rtasida qaror qabul qilish jarayoni, Muslim Medicalda Etika amaliyot uchun nazariyasi, ad. Jonathan Brockopp va Tomas Eich (Kolumbiya: The Janubiy Karolina universiteti matbuoti, 2008), 63.
3. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. -Toshkent: Toshkent islom unversiteti, 2017. -B. 118.
4. Imom Buxoriy. Al adab al mufrad. –Toshkent: 1990, -B.94.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yuuf. Hadis va hayot. 18 -juz. Tib va dam kitobi. -Toshkent: Hilol- Nashr, 2020. -B. 46.